



## **PEDAGOGIKA INSTITUTLARI TALABALARI UCHUN ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARINI YARATISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI**

***Achilov O'tkir Isomitdinovich***

*Samarqand Davlat Universtetining O'zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti assistenti*

***Annotatsiya:*** *Globalashuv jarayonida ta'limni tashkil etishda tezkorlik va sifat ko'rsatkichlariga erishish muhim ahamiyatga ega. Zero, axborot oqimi tobora shiddatli tus olayotgan ayni vaziyatda OTM pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini zarur bilimlar bilan qurollantira olishga erishish har bir pedagogning kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sanaladi. O'quv jarayonining didaktik imkoniyatlari "pedagog-tinglovchi" yoki "tinglovchi-pedagog" tamoyili asosida tinglovchilar tomonidan o'quv materiallarining nazariy hamda amaliy jihatdan samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Ushbu tezislarda, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy metodlar, axborot resurslari, shuningdek, elektron adabiyotlardan foydalanish va ularni yaratish mobaynida didaktik tamoyillarning o'rni haqidagi ma'lumotlar yig'ilib tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Zamonaviy ta'lim, axborotlashtirish, pedagogika instituti, elektron adabiyotlar, didaktika, axborot resurslari, talabalar.*

Zamonaviy ta'limning tashkil etilishiga qo'yilayotgan talablar orasida malaka oshirish kurslari tinglovchilarining mustaqil ta'lim olishlariga erishish ham o'ziga xos o'rin tutadi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining mustaqil ta'lim olishlariga erishishda har bir o'quv moduli bo'yicha yaratiladigan elektron axborot ta'lim resursi muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron axborot ta'lim resurslari ikki, ya'ni: 1) ilmiy metodologik; 2) dasturiy-texnik darajalarda rejalashtiriladi. Mazkur o'quv vositasiga qo'yiladigan birlamchi va eng muhim talab, mazmuni va amaliyotga tadbiq etilishi jihatidan tinglovchilarda ta'lim standartlariga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni beradi. O'quv fan (modul)lari bo'yicha tizimlilik, izchillik, o'zaro muvofiqlik va yaxlitlik asosida shakllantirilib, o'quv materiallarini to'liq yoki qisman qamrab olgan holda kompyuter texnologiyasi yoki Internet axborot tarmog'ida (alohida) joylashtirilgan elektron nashrlar majmuidir.

Metodika va didaktika uzviy bog'liqdir. Metodika deganda bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tu-shunilishini ko'rib o'tdik. Bu fan didaktikaning bo'limidir. Didaktika (yunon—didaktikos — o'qitadigan, o'rgatadigan) — pedagogikaning bilim olish, ta'lim va tarbiya



nazariyasiga oid.U talabalarning bilim olish, o'zlashtirish va ko'nikmalar hosil qilish jarayoniga xos ta'lim prinsiplari, uslublari va o'quv jarayonini tashkil qilishga oid hamma masalalarni o'rganadi.

Elektron adabiyotlar yaratishda didaktikaning asosiy tamoyilari quyidagilar:

- Nazariya bilan amaliyotning bir-biri bilan bog'liqligi.Nazariy bilim doim kasb-hunar amaliyoti bilan bog'lanishi lozim. Amaliy ta'lim ham o'z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak.
- Ko'rgazmalilik.Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish tilning tushunarligini va ta'lim jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishni, bevosita ish holatida va real obyektlarda o'qitishni talab qiladi. Darslar ko'rgazmali qurollar yordamida berilsa, o'quvchilarning o'zlashtirishlari osonlashadi.
- Tushunarlik.O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, o'quvchilar uni o'zlaridagi bilimlar bilan bog'lay olishsin va uni tushunishda qiynalmasin. Ya'ni o'quv materialining mazmuni, shuningdek, o'qituvchining tili va fikrlarini ifodalash usuli o'quvchi-talabaning bilim saviyasiga mos kelishi lozim. Lekin bu ilmiy terminlardan foydalanilmaydi, degani emas.
- Ilmiylik.O'quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo'lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o'zida aks ettirishi lozim. O'qituvchining taxminiga yoki subyektiv fikriga asoslangan material qo'llanilmashgi kerak.

Elektron o'quv nashrlari– raqamli manbalarni tashuvchilar(CD, DVD)da elektron ko'rinishda taqdim etiladigan va o'quv jarayonida foydalaniladigan o'quv nashrlarini shakllantiradi.

Elektron darsliklarning turlari:

1) mustaqil ta'lim olish uchun mo'ljallangan va uslubiy materiallardan tashqari qo'shimcha tarzda so'rovnomalar, glossariyalar, o'quv materialining ilmiy tasnifi, ularni algoritmik o'zlashtirish bo'yicha mashqlar va malaka ro'yxatini qamrab olgan darslik (gipermatn);

2) o'quv materialiga harakat bag'ishlovchi video (bunda axborotni qabulqilishning eshitish va ko'rish kanallaridan foydalaniladi) hamda tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatish orqali o'quv materialini o'zlashtirishni kuchaytiruvchi yozib olingan audio ma'ruzalar;

3) o'rganilayotgan fanlarning tinglovchi tomonidan o'zlashtirilishigako'ra almashtirilib, kodoskop, proyektor (multimedia proyektori) imkoniyatlaridan



foydalangan holda seminar tusida tashkil etiladigan dars uchun mo'ljallangan o'quv materiallari.

Ta'lim jarayonida qo'llash uchun yaratilgan elektrondarsliklar ham nashr ishlari hisoblanadi va ilmiy ish olibborayotgan amaliyotchilar uchun mo'ljallangan intellektual ish sifatida baholanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslariga ko'ra har qanday intellektual ish yaratuvchisi belgilangan tartibda mualliflik huquqiga ega bo'ladi. Har bir elektron darslik bir tomondan ma'lum darajada avtonom (mustaqil) bo'lishi, ikkinchi tomondan esa tarkibiy tuzilmasi va undagi axborot ma'lumotlari didaktik talablarga javob berishi zarur.

Elektron ma'ruza matnlari – o'zida o'quv maqsadlarini, foydalanish uchun tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlarini, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumini, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralarni qamrab olgan holda tegishli o'quv modulining o'quv dasturiga muvofiq barcha mavzularning asosiy mazmunini bayon etuvchi didaktik xususiyatga ega bo'lgan yangi bilimlarni olish imkoniyatini yaratuvchi elektron adabiyotlarga ehtiyoj mavjud.

Elektron shaklda tashkil etiladigan ta'lim jarayonining nazariy mashg'ulotlari odatda matnli ma'ruzaga tayanadi. Shu sababli matnli ma'ruza elektron ma'ruza matnlarining salmoqli qismini egallaydi. Odatda, o'quv dasturiga kiruvchi barcha materiallar matnli shaklda yaratiladi, keyin esa qo'shimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqiladi. O'quv materialining bu taxlitda taqdim etilishi an'anaviy ma'ruzalar ega bo'lgan kamchiliklar, xususan, zarur o'rinlarini to'ldirish talab etiladi. Bunda pedagog va tinglovchilarning bir-birlarini real vaqtda ko'rib, eshitib turishlari ular orasidagi masofaviy oraliqni bartaraf etadi. Shu sababli ushbu texnologiya pedagog va tinglovchilarning bevosita muloqoti asosida tashkil etilishi bilan ajralib turadi.

Bunday materiallar tarkibiga ma'ruza, mavzuga taalluqli ilmiy-ommabop videomateriallar, sohaning yetakchi mutaxassislari bilan uchrashuvni yoritadigan videolavhalar kiritiladi. Bunday video va elektron materiallardan ixtiyoriy ravishda, istalgan joyda, vaqtda hamda takroran foydalanish imkoniyati mavjud. Animasion ma'ruzalar tinglovchilarga interfaol xarakterga ega o'rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali yetkaziladi. Animatsion ma'ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalangan holda shakllantiriladi. Unda har bir tinglovchi o'zining psixologik-fiziologik xususiyatidan kelib chiqqan holdammazkur turdagi ma'ruzada o'z trayektoriyasi, o'zlashtirish sur'ati, o'rganish usulini tanlaydi.

Xulosa qilib aytganda, elektron darsliklarni yaratish jarayonida asosan didaktik talab va tamoyillarni ham unutmaslik kerak. Boisi pedagogik ta'lim jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan turli xildagi elektron adabiyotlardan dars



mashg'ulotida har qanday holatda ham foydalanish mumkin. Pedagogika instituti talabalari uchun elektron adabiyotlarni didaktik talablarga asosan o'qitish uchun turli xildagi elektron adabiyotlarni yaratishning o'ziga talablari mavjud. Manbalar ishonchli, ma'lumotlar aniq va faktlarga asoslangan bo'lishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Armstrong, C.J.; et al. A study of the use of electronic information systems by higher education students in the UK. Program, 2001, 239-p
2. Higher education student pathways to ebook usage and engagement, and understanding: Highways and cul de sacs - Biddy Casselden, Richard Pears, 2020. <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/0961000619841429>
3. Reading e-books for university study - Reading and making notes - LibGuides at University of Reading. <https://libguides.reading.ac.uk/reading/ebooks>
4. Ostonov .Q.A, Mardanov.E.M, Achilov.O`.I, About teaching students to methods of solving problems by combinator Indonesian Journal of Education Methods Development 2019. E-ISSN:2598-911x DOI:10,15640/Jehd
5. Ostonov .Q.A, Mardanov.E.M, Achilov.O`.I, Totliyev. O`.X, About some methodical features of the development of creative competence of students in the process of solving research geometric problems. American journal of social and humanitarian research ISSN: 2690-9626 vol. 1, no.5, october- november 2020
6. Ostonov .Q.A, Mardanov.E.M, Achilov.O`.I, J.A.Qodirov, Totliyev. O`.X, (2020). Formation of quantitative representations in preschool children in the process of mathematical games. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN:1475-7192 DOI: 10.37200 / IJPR / V2416 / PR260459
7. Ostonov .Q.A, Mardanov.E.M, Achilov.O`.I, Imomqulova. O.N, About Some Methodical Features of the Development of Creative Competence of Students in the Solution of Research Problems in the Process of Differentiated Learning of the Course of Geometry. Solid State Technology Volume: 64 Issue: 2 Publication Year: 2021 Archives Available @ [www.solidstatetechnology.us](http://www.solidstatetechnology.us)